

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

Abduhoshimova Oydinoy Abdulhamiq qizi

AndDPI boshlang'ich talim yo'nalishi 1bosqich talabasi

Ilmiy rahbari: Nurmatova Shohyora

**Annatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish bo'yicha va shu bilan birgalikda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash orqali mustaqil fikrlash malakasini samarali darajada oshirilishi keltirib o'tilgan .

**Kalit so'zlar :** tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash , o'quvchilarning malakasini oshirish, kasbiy tajriba

**Аннотация:** В данной статье речь идет о формировании способности критического мышления у учащихся начальных классов и одновременно об эффективном совершенствовании навыков самостоятельного мышления учащихся посредством критического мышления.

**Ключевые слова:** критическое мышление, самостоятельное мышление, совершенствование навыков студентов, профессиональный опыт.

**Annotation:** This article deals with the formation of critical thinking ability of primary school students and at the same time the effective improvement of independent thinking skills of students through critical thinking.

**Key words:** critical thinking, independent thinking, improving students' skills, professional experience

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun ta'lim tizimini mustahkamlash muhimligini tan oladi . Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati bir tomondan faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish va ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir . Shu o'rinda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi : "Tanqidiy tahlil , qa'tiy tartib- intizom va shahsiy javobgarlik -hat bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak."

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi pedagoglar tomonidan maxsus turdagi topshiriqlar mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali royobga chiqariladi va ularning samaradorligi muayyan mezonlar yordami bilan amalga oshiriladi . Ta'lim jarayoni to'laqonli tarzda o'quvchiga yo'naltirilsa uning ehtiyoj va imkoniyatlari, qiziqishlari , iqtidorini hisobga olgan holda muayyan tamoyillar asosida tashkil etilsa bunday ta'lim natijalari ,birinchi ,navbatda o'quvchi shaxsining o'zini , shu bilan bir qatorda , davlat , jamiyat hamda fan va ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi omil darajasiga ko'tariladi . Ta'lim jarayoni o'quvchilar tomonidan tanlangan turli yo'llarga moslashtirilib , takomillashtirilib borilgandagina ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin yaratiladi .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun darsning maqsadini aniq ,pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoning muayyan jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:

- O'qish jarayonini tezligini muvofiqlashtirish;
- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish ;
- Ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish ;
- O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- Amaliyot orqali o'rganish ;
- Ikki tomonlama fikr -mulohazalar almashinuvini tashkil qilish ;
- O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- O'quv jarayonini baholash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish , o'quvchilar tomonidan bayon qilingan turli- tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini taminlash , har bir o'quvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish ,ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish , pedagogik ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi .

O'qituvchilar tanqidiy fikrlash tushunchasini yahshi tushunadilar . Ular tanqidiy fikrlashni turli strategiyalar orqali faktlarni tahlil qilish boshqa faraziy vaziyatlarni idrok etish va aniq faktlar bo'yicha shaxsiy fikrlarni shakllantirish va takomillashtirish qobiliyati deb hisoblaydilar.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki tanqidiy fikrlashni turli yo'llar bilan belgilash mumkin bo'lsada , uning asosiy tarkibiy qismi -qoniqarli natijaga erishish istagi haqida umumiy kelishuv mavjud va bunga oqilona fikrlash va natijalarga yo'naltirilgan ish orqali erishish lozim . O'quvchilar o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarning qadrini tushunishi , o'quv jarayonida faol ishtirok etishi , turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglashi , o'z hukmlarini shakllantirishi lozim . O'quvchi yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish maqsadida o'qituvchi o'quv mashg'ulot jarayonida rang- barang fikrlar faollik, tavakkalchilik , fikrlarni kadrlash, fikrlarning qiymatliligi, o'zaro fikr almashuv , tanqidiy fikrlarni ta'minlovchi savollarga ustuvorlik berishi kerak .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. M. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil , qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak ". Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza .2017-yil 14-yanvar.

# **ILM FAN XABARNOMASI**

## **Ilmiy elektron jurnali**

2. Xodjayeva F O o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va uning muhim jihatlari."Zamonaviy talim"ilmiy amaliy ommabop jurnali.2017-yil
3. Qurbonova M O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari :ped .Fan .dokt .diss-T:1998